

BADIIY TA'LIMDA KLASSIK TASVIRIY MEROS VA ZAMOAVIY GOBELEN TO'QISH SAN'ATI SINTEZI

Tòxtanazarova Umida Imomnazar qizi

Andijon davlat pedagogika instituti

*"Ijtimoiy va amaliy fanlar" fakulteti Tasviriy san'at va
muhandislik grafikasi yònalishi 1-bosqich 102-guruh talabasi*

Annotatsiya: *Ushbu maqolada oliy ta'lim tizimida bo'lajak tasviriy va amaliy san'at o'qituvchilarini tayyorlashda klassik tasviriy meros an'analarini zamonaviy gobelen to'qish texnikasi bilan sintez qilish masalalari tadqiq etilgan. Tadqiqot davomida Sharq miniatyura maktabining kompozitsion tuzilishi, ranglar uyg'unligi va falsafiy mazmunini badiiy gobelen texnologiyasiga tatbiq etishning ilmiy-metodik asoslari tahlil qilingan. Amaliy qismda milliy badiiy elementlarni gobelen iplari yordamida qayta tiklash bosqichlari ko'rsatib o'tilgan. Maqola xulosalari oliy pedagogik ta'limda talabalarning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish va milliy madaniy merosni saqlashga xizmat qiladi.*

Kalit so'zlar: *badiiy ta'lim, klassik tasviriy meros, sharq miniatyurasi, gobelen san'ati, kompozitsiya sintezi, amaliy san'at, ranglar garmoniyasi.*

Annotation: *This article examines the issues of synthesizing classical visual heritage traditions with modern gobelin weaving techniques in training future fine and applied art teachers within the higher education system. During the study, the scientific and methodical principles of applying the compositional structure, color harmony, and philosophical essence of the Eastern miniature school to artistic gobelin technology were analyzed. The practical part outlines the stages of recreating national artistic elements using tapestry threads. The conclusions of the paper serve to develop students' creative abilities in higher pedagogical education and preserve the national cultural heritage.*

Keywords: *art education, classical visual heritage, Eastern miniature, gobelin art, synthesis of composition, applied arts, color harmony.*

Аннотация: *В данной статье рассматриваются вопросы синтеза традиций классического визуального наследия с современными техниками гобеленового ткачества в подготовке будущих преподавателей изобразительных и прикладных искусств в системе высшего образования. В ходе исследования проанализированы научно-методические основы применения композиционной структуры, цветовой гармонии и философского содержания восточной школы миниатюры к художественной гобеленовой технологии. Практическая часть показывает этапы воссоздания национальных художественных элементов с использованием гобеленовых нитей. Выводы статьи служат развитию*

творческих способностей студентов высшего педагогического образования и сохранению национального культурного наследия.

Ключевые слова: художественное образование, классическое визуальное наследие, восточная миниатюра, гобеленовое искусство, композиционный синтез, прикладное искусство, цветовая гармония.

KIRISH: Gobelen san'atining tarixiy ildizlariga nazar tashlasak, ushbu san'at turi dastlab Yevropada, xususan, 1662-yilda Parij manufakturasida XV asrning mashhur bo'yoqchilari Gobelenlar nomi bilan shakllanganini ko'rishimiz mumkin. Klassik davrda gobelenlar rangli jun ipak, ba'zan tilla va kumush iplar yordamida, buyuk rassomlar (masalan, Rafael, Sh. Lebre, F. Bushe) tomonidan tabiiy kattalikda chizilgan karton-eskizlar asosida yuqori badiiylilikda to'qilgan. O'zbekiston hududida gobelen to'qish san'ati nisbatan yosh janr hisoblanib, uning shakllanishi 1960-yillarga borib taqaladi. 1970–1980-yillarda M. Churlu, Ya. va A. Ishoqovlar hamda L. Taldikina kabi ustalar sharqona bezaklar, mahalliy tabiat manzaralari va o'zbekona rang-baranglikni gobelen texnikasiga olib kirdilar. Bugungi kunda Toshkent va Farg'ona ijodiy maktablari (M. Tyurina, R. Ibrohimova, V. Useinova va boshqalar) ushbu an'analarni barakali davom ettirmoqda. Demak, zamonaviy gobelen san'atida g'arb to'qish texnologiyasi va sharqona klassik meros hamisha o'zaro uzviy bog'langan holda rivojlanib kelgan. Biroq, bugungi kunda oliy ta'lim tizimida, xususan, bo'lajak tasviriy san'at va amaliy fanlar o'qituvchilarini tayyorlash jarayonida gobelen to'qish san'atining o'rni faqatgina texnik ko'nikmalarni egallash bilan cheklanib qolmoqda. Talabalarga gobelen to'qishni o'rgatishda klassik tasviriy merosimiz hisoblangan milliy kompozitsiya qonuniyatlari, xususan, miniatyura maktabi an'analarini tizimli sintez qilish mexanizmlari yetarlicha ishlab chiqilmagan. Ushbu muammo badiiy oliy ta'lim muassasalarida amaliy yo'nalishdagi darslarning metodik ta'minotini boyitish va talabalarning mustaqil ijodiy tafakkurini rivojlantirish zaruriyatini yuzaga keltiradi. Mazkur tadqiqot aynan ta'lim tizimidagi mana shu uslubiy bo'shliqni to'ldirishga hamda gobelen to'qish san'atining pedagogik imkoniyatlarini yangi bosqichga olib chiqishga qaratilganligi bilan dolzarb hisoblanadi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METADALOGIYASI: Gobelen san'atining nazariy prinsiplari, uning Yevropa madaniyatidagi o'rni va monumental xarakteri xorijiy tadqiqotchi L. Taylor tomonidan keng yoritilgan. Olim gobelen matosida bir nechta mustaqil syujet va murakkab ranglar uyg'unligini aks ettirish to'quvchidan yuksak kompozitsion saviyani talab qilishini asoslab bergan. O'zbekistonda professional gobelen va badiiy to'qimachilik maktabining shakllanish tarixi va uning o'ziga xos xususiyatlari akademik A. Hakimovning ilmiy ishlarida batafsil tahlil qilingan. Muallif o'z tadqiqotlarida 1970–1980-yillarda o'zbek gobelenida milliy o'ziga xoslikning

shakllanishini gilamchilik va miniatyura san'ati sintezi bilan bog'laydi hamda andijonlik yetuk rassom Abdullajon Jo'raboyev kabi ustalar ijodini bunga yorqin misol qilib ko'rsatadi.

Badiiy ta'lim jarayonida talabalarning amaliy ko'nikmalarini shakllantirish, iplarga va xomashyoga ishlov berish metodikasi K. Gulyamovning darsliklarida texnologik jihatdan ochib berilgan bo'lib, u gobelen tanda va arqoq iplarining zichlik korrelyatsiyasini hisoblashda muhim manba bo'lib xizmat qiladi.

Gobelen san'atining pedagogik platformadagi o'rni, dars jarayonida talabalarning ijodiy kreativligini va asar yaratish ko'nikmalarini shakllantirish masalalari esa mahalliy olimlar S. Komoldinov va F. Sattorovlarning metodik tavsiyalarida o'z aksini topgan. Shuningdek, oliy pedagogik ta'limda art-pedagogika elementlaridan, ya'ni ijodiy muloqot metodlaridan foydalanish ta'lim samaradorligini oshirishi S. Abdumannopova tomonidan ilmiy jihatdan isbotlangan.

Muallif S.S. Bulatov esa o'zining "Naqqoshlik" asarida har qanday milliy amaliy san'at asari zahirida ramziylik va ranglar falsafasi yotishi kerakligini ta'kidlaydi, bu esa gabelen ustida ishlayotgan talabaga klassik meros kompozitsiyasini to'g'ri anglashga yordam beradi.

MUHOKAMA VA NATIJA: Mazkur tadqiqot doirasida klassik tasviriy meros an'analarini zamonaviy gobelen to'qish jarayoniga tatbiq etish masalalari o'rganildi. Ushbu yo'nalishdagi amaliy-tajriba ishlari Andijon davlat pedagogika institutining "Tasviriy san'at va muhandislik grafikasi" kafedrasi laboratoriyasi hamda ustaxona muhitida bajarildi.

Ish davomida asosiy metodologik mezon sifatida ustoz-shogird an'analariga, shuningdek, o'zbek gobelen san'atining taniqli ustasi A. Jo'raboyev hamda soha olimlari K. Gulyamov, S. Komoldinovlarning ilmiy-metodik qarashlariga tayanildi. Belgilangan tavsiyalar asosida tadqiqot doirasida quyidagi bosqichlarni izchil amalga oshirdim:

Karton-eskiz ustida ishlash (Klassik yondashuv): To'qish bosqichiga o'tishdan avval, Rafael kabi klassik gobelen maktabi namoyandalari qo'llagan an'anaga ko'ra, asarning tabiiy o'lchamdagi rangli eskizi (karton) tayyorlab olindi. Ushbu jarayonda sharqona kompozitsiya tuzilishi va milliy rangtasvir qonuniyatlarini uyg'unlashtirishga alohida e'tibor qaratildi.

Xomashyoga texnologik ishlov berish: To'quv jarayonida iplarning tekstura imkoniyatlarini kengroq ochib berish maqsadida, K. Gulyamov metodologiyasi bo'yicha iplarni tanlash va xomashyoni tayyorlash ishlari bajarildi. Gobelennig tanda (asos) qismi uchun yuqori mustahkamlikka ega paxta ipi tanlangan bo'lsa, arqoq uchun asar yuzasiga tabiiy jilo va joziba bag'ishlovchi jun hamda ipak iplari kombinatsiyasidan foydalanildi.

Olib borilgan amaliy mashg'ulotlar va ustaxonadagi eksperimental ishlar yakunida olingan natijalar shuni ko'rsatdiki, talabalarga shunchaki gobelen to'qishning texnik usullarini (iplarni o'tkazish, urish, mahkamlash) mexanik tarzda o'rgatish kutilgan samarani bermaydi. Buning o'rniga, ularga dastlabki bosqichdanoq klassik miniatyura kompozitsiyalarining ichki garmoniyasini, ranglar falsafasini va chiziqlar plastikasini tushuntirish ta'lim sifatini tubdan oshirdi. Tajriba davomida to'plangan ma'lumotlar va talabalarning ijodiy ishlari tahlili quyidagi tizimli mezonlarda namoyon bo'ldi:

Talabalar an'anaviy sharqona naqshlarni va klassik miniatyura tasvirlarini gobelen iplariga ko'chirish (transformatsiya qilish) jarayonida ranglar mutanosibligini chuqur his qilishni o'rgandilar. Amaliyotda tekshirilganda, klassik asarlar koloriti (ranglar tizimi) talabalarga iplar rangini to'g'ri tanlash va ularni o'zaro uyg'unlashtirish (nyuans va kontrast) qobiliyatini tezroq shakllantirishga yordam berdi.

Bu jarayon shuni isbotlaydiki, K. Gulyamovning ashyolarga texnologik ishlov berish (iplar teksturasi bilan ishlash) bo'yicha metodikasi hamda S. Bulatovning naqqoshlik tizimiga oid nazariy qarashlari amaliyotda o'zaro uzviy bog'liqdir. Ya'ni, talaba naqshning geometrik qurilishini (S. Bulatov bo'yicha) aniq anglagandan keyingina, uning gobelendagi tekstura jilosini (K. Gulyamov bo'yicha) jun va ipak iplari yordamida yuqori saviyada ifodalashga erishdi.

Tahlil va muhokama darslarida talabalarga nafaqat umumiy nazariya, balki Toshkent va Farg'ona gobelen maktablarining o'ziga xos tarixiy tajribasi qiyosiy tarzda o'rgatildi. Ayniqsa, Andijon ijodiy muhitida samarali mehnat qilgan, respublika xalq amaliy san'atining yetuk namoyandasi usta Abdullajon Jo'raboyevning xalqaro miqyosda hamda Moskva ko'rgazmalarida yuqori e'tirof etilgan kompozitsiyalari badiiy va kompozitsion jihatdan chuqur tahlil qilib berildi.

Dars jarayonida art-pedagogika va interaktiv ta'lim metodlaridan foydalanish talabalar o'rtasida erkin ijodiy muloqot muhitini yuzaga keltirdi. Gobelen to'qish san'ati o'ta ko'p vaqt, tinimsiz diqqat-e'tibor va yuksak sabr-toqat talab qiladigan murakkab jarayondir. Yakka tartibda ishlaganda talabalarda charchash va monotonlik (bir xillik) sababli qiziqish so'nishi kuzatilgan bo'lsa, darslarni kichik guruhlarda (jamoaviy hamkorlikda) tashkil etish bu muammoni butunlay bartaraf etdi.

Kichik guruhlarda talabalar umumiy karton-eskiz ustida birgalikda fikrlashib, iplarni bir-birlari bilan maslahatlashgan holda to'qidilar. Bu yondashuv ularning jismoniy va ruhiy charchash ko'rsatkichini keskin kamaytirdi. Shuningdek, guruhdagi sog'lom ijodiy raqobat va o'zaro ko'mak talabalarning amaliy ko'nikmalarni o'zlashtirish hamda asarni yakuniga yetkazish tezligini sezilarli darajada oshirishga xizmat qildi.

XULOSA: Andijon davlat pedagogika institutining "Tasviriy san'at va muhandislik grafikasi" yo'nalishi laboratoriya va ustaxona sharoitida olib borilgan amaliy-eksperimental tadqiqotlar an'anaviy tasvviriy meros elementlarini zamonaviy pedagogik jarayonga integratsiya qilishning yuqori samaradorlikka ega ekanligini to'liq

isbotladi. O'tkazilgan ko'p bosqichli ilmiy-amaliy tajribalar, talabalarning ijodiy ishlari monitoringi va olingan natijalarning qiyosiy tahlili asosida quyidagi kengaytirilgan yakuniy xulosalarga kelindi:

Zamonaviy gobelen to'qish ta'limida faqatgina tor doiradagi texnik va mexanik ko'nikmalarni shakllantirish bilan cheklanmasdan, Rafael kabi klassik g'arb ustalari tajribasi hamda sharqona miniatyura maktabi qonuniyatlariga tayangan holda professional karton-eskiz ustida ishlash tizimi joriy etildi. Bu yondashuv talabalarning vizual va badiiy-kompozitsion tafakkurini tubdan boyitishga xizmat qildi.

Tadqiqot jarayonida oliy ta'lim tizimidagi an'anaviy ustoz-shogird mezonlari hamda soha olimlari K. Gulyamov, S. Komoldinov va S. Bulatovlarning ilmiy-metodik tavsiyalari o'zaro sintez qilindi va bu metodologiya talabalarning nazariy bilimlarini amaliyotda realizatsiya qilishda o'zini to'liq oqladi.

Ushbu tadqiqotning mantiqiy davomi sifatida, kelgusida gobelen san'atida kompozitsion muammolarni hal qilishda raqamli texnologiyalar va 3D modellash tirish dasturlaridan unumli foydalanish masalalarini yanada kengroq ilmiy o'rganish rejalashtirilgan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Abdumannopova, S. (2023). Art pedagogikada ijodiy muloqot hamda ilg'or metodlar asosida ta'lim samaradorligini oshirish masalalari. San'at Ta'limi Jurnal, 2(5), 122-127.
2. Bulatov, S. S. (2008). Amaliy bezak san'ati mashg'ulotlari metodikasi. Toshkent: O'tgan kunlar tahririyati.
3. Bulatov, S. S. (2010). Naqqoshlik. Toshkent: "Fan va texnologiya".
4. Bulatov, S. S. (2010). O'zbek xalq amaliy bezak san'ati. Toshkent: "Iqtisod-Moliya".
5. Gulyamov, K. (2004). Ashyolarga ishlov berish. Toshkent: Bilim.
6. Khakimov, A. A. (2015). Art of Uzbekistan: History and Modernity. Tashkent: San'at Magazine Publishing House.
7. Komoldinov, S., & Sattorov, F. (2022). Ijodiy asar yaratish bo'yicha metodik tavsiyalar. Scientific-theoretical journal of international education research, 3(1), 42-46.
8. O'zbekiston Milliy Ensiklopediyasi. (2002). Gobelen (G harfi jildi). Toshkent: Davlat ilmiy nashriyoti.
9. Taylor, L. (2018). The Art of Modern Tapestry: Weaving Traditions and Innovation. London: Thames & Hudson.
10. Bakhtiyorovich, Ismonov Khurshidbek, and Ruziyev Nuriddin Mukhammadaliyevich. "Pairing, Their Own Aspects and Corresponding Methods of

Work with Pairing in the Autocad Software." *International Journal on Orange Technologies* 3.12 (2021): 211-216.

11. qizi Abduraimova, Muazzamoy Abduqodir. "PERSPEKTIVA." *INTERNATIONAL CONFERENCES*. Vol. 1. No. 11. 2022.

12. Xurshidbek, Ismonov, Rustamov Umurzoq, and Abduraimova Muazzamoy. "MARKAZIY VA PARALLEL PROYEKSIYA ORTOGONAL PROYEKSIYALAR VA MODELNI KO 'RINISHLARI." *Educational Research in Universal Sciences* 1.4 (2022): 70-81.

13. Ismonov, Xurshidbek Baxtiyorovich, and Muazzamoy Abduqodir qizi Abduraimova. "ORTOGONAL PROYEKSIYALAR VA MODELNI KO 'RINISHLARI." *Educational Research in Universal Sciences* 1.3 (2022): 288-296.

14. Qizi, Abduraimova Muazzamoy Abduqodir. "PROJECTION AND AXONOMETRY."

15. "UMUM TA'LIM MAKTABLARDA CHIZMACHILIK FANINI O'QITISHNING HOZIR HOLATI." *Oriental Art and Culture*, Vol. 5, No. 6, 2024, pp. 65–69.

16. Khakimjanovch, I. M. A., & Abduqodirovna, A. M. Capabilities OF Computer Graphics. General Information About Graphic Programs. *Galaxy International Interdisciplinary Research Journal*, 12(11), 114-117.

17. Mirzaev, S. O. Methodology for Organizing Exhibitions AND Creative Activities in Primary Schools. *Galaxy International Interdisciplinary Research Journal*, 13(12), 150-154.

18. Ismonov, X. B., & Abduraimova, M. A. AUTOCAD DASTURIDA TUTASHMA BILAN ISHLASHNING MAQBUL USULLARI.

19. Ismonov, X., Rustamov, U., & Abduraimova, M. (2022). PERSPEKTIVA. PERSPEKTIV MASSHTABLAR. *Science and innovation*, 1(C6), 164-171.

20. Olimovich, M. S., Baxtiyorovich, I. X., & Shokirovna, Z. M. (2020). Problems of teaching fine arts and its history. *ACADEMICA: AN INTERNATIONAL MULTIDISCIPLINARY RESEARCH JOURNAL* Учредители: Diva Enterprises Private Limited, 10(4), 69.

21. Mirzaev, S. O. Methodology for Organizing Exhibitions AND Creative Activities in Primary Schools. *Galaxy International Interdisciplinary Research Journal*, 13(12), 150-154.

22. ОЛИМОВ, Л., МИРЗАЕВ, С., & ДАРМОНОВ, И. ТАСВИРИЙ САНЪАТ МУТАХАССИСЛИГИ ТАЛАБАЛАРИГА АДСОРБЦИЯ ҲОДИСАСИНИ ЎҚИТИШ. ИЛМИЙ ХАВАРНОМА. НАУЧНЫЙ ВЕСТНИК Учредители: Андижанский государственный университет им. ЗМ Бабура, (3), 111-112.

23. Mirzayev, S. O. TASVIRIY SAN'AT DARSLARINI MAZMUNLI TASHKIL ETISHDA SINFDAN VA MAKTABDAN TASHQARI ISHLAR SAMARADORLIGINI OSHIRISH.